

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY HIMOYA VA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMLARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA

Tursunov Uktam Saypullayevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrası

o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: utursunov089@gmail.com.

<https://orcid.org/0009-0004-4942-0601>

UDK: 94(575.151)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar Surxondaryo viloyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, birlamchi tibbiy xizmatlarni rivojlantirish hamda sog‘liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonlari yoritiladi. Shuningdek, viloyatda amalga oshirilgan tibbiyot muassasalarini jihozlash, energiya ta‘minotini yaxshilash, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish va shoshilinch tibbiy yordam tizimini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amaliy natijalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, islohotlar, Surxondaryo viloyati, tibbiy infratuzilma, birlamchi tibbiy xizmat, onalik va bolalik.

Annotatsiya: В данной статье анализируются масштабные реформы, реализованные в системе социальной защиты и здравоохранения в Новом Узбекистане на примере Сурхандарьинской области. В исследовании освещаются процессы поддержки социально уязвимых слоев населения, охраны материнства и детства, развития первичной медицинской помощи, а также модернизации инфраструктуры здравоохранения. Кроме того, рассматриваются практические результаты мер, направленных на оснащение медицинских учреждений, улучшение энергоснабжения, внедрение современных медицинских технологий и укрепление системы скорой медицинской помощи.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, социальная защита, здравоохранение, реформы, Сурхандарьинская область, медицинская инфраструктура, первичная медицинская помощь, материнство и детство.

Abstract: This article analyzes large-scale reforms implemented in the social protection and healthcare systems of New Uzbekistan, using the Surkhandarya region as a case study. The study highlights the processes of supporting socially vulnerable groups, protecting maternal and child health, developing primary healthcare services, and modernizing healthcare infrastructure. It also examines the practical outcomes of measures aimed at equipping medical institutions, improving energy supply, introducing modern medical technologies, and strengthening the emergency medical care system.

Keywords: New Uzbekistan, social protection, healthcare, reforms, Surkhandarya region, medical infrastructure, primary healthcare, maternal and child health.

KIRISH (BIBEDENIE / INTRODUCTION). Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish hamda inson kapitalini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish orqali aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy himoya tizimi

yanada manzilli va samarali mexanizmlar asosida qayta tashkil etildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan oilalar, yolg'iz keksalar hamda ijtimoiy zaif qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar kengaytirilib, davlat tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'lami sezilarli darajada oshirildi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimida birlamchi tibbiy xizmatlarni kuchaytirish, profilaktik tadbirlarni keng joriy etish hamda zamonaviy tibbiy texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Surxondaryo viloyati mazkur jarayonlarning hududiy darajadagi natijalarini o'rganish uchun muhim mintaqalardan biri hisoblanadi. Viloyatning geografik joylashuvi, demografik o'sish sur'atlarining yuqoriligi hamda ayrim chekka hududlarda infratuzilmaning nisbatan murakkabligi ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning amaliy samaradorligini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2018-yilda viloyat hududida 6 oydan 23 oygacha bo'lgan bolalarni bepul mikroelementlar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli dastur amalga oshirildi. Ushbu tashabbus 78 000 yosh bolani qamrab oldi va aholining eng zaif qatlamlarining ovqatlanish holatini yaxshilash bo'yicha sezilarli sa'y-harakatlarni namoyish etdi. Bundan tashqari, 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida gelmintozlarning oldini olish uchun ixtisoslashtirilgan dori-darmonlar taqdim etildi. Ushbu yosh guruhidagi 222 600 bolaning 93 227 nafari tegishli dori-darmonlarni oldi, bu parazit infeksiyalari xavfini kamaytirish va yosh avlod salomatligini qo'llab-quvvatlashda muhim qadam bo'ldi. Homilador va emizikli ayollarga, shuningdek, 3 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu aholi guruhlariga yod tanqisligining oldini olishda muhim rol o'ynaydigan yodli qo'shimchalar berildi. Jami 9 707 ta o'ram yod preparati tarqatildi. Buning natijasida 39 950 homilador va emizikli ayol hamda 122 018 bolaga yod preparati yetib bordi[1:13]. Bu esa yordamga muhtoj aholining katta qismining salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb

etdi.

2020-yilgi global COVID-19 pandemiyasi davrida, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalarini elektr energiyasi bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli dasturni amalga oshirdi. Ushbu tashabbus turli quvvatdagi 42 ta generatorni o'rnatishni o'z ichiga oldi, bu markazlashtirilgan elektr ta'minotida uzilishlar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarda tibbiyot muassasalarining uzluksiz ishlashini ta'minladi. Dastur tugagandan so'ng, energiya quvvatlarining ishga tushirilishi quyidagilarni o'z ichiga oldi: 1 ta - 400 kilovattlik generator, 11 ta - 300 kilovattlik generator, 7 ta - 200 kilovattlik generator, 12 ta - 100 kilovattlik generator va 11 ta - 50 kilovattlik generator. Loyihaning umumiy qiymati 6 milliard 120 million 204 ming 966 so'mni tashkil etdi[2:34], bu mintaqaning sog'liqni saqlash infratuzilmasiga katta miqdorda investitsiya kiritilganligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, Surxondaryo viloyatidagi tibbiyot muassasalarining energiya mustaqilligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli tashabbus muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu ularning samaradorligini va tashqi omillarga, jumladan, pandemiya xavflariga chidamliligini sezilarli darajada oshirdi va mintaqqa aholisi uchun tibbiy yordamning uzluksizligini ta'minlashga katta hissa qo'shdi.

Oxirgi besh yillikda sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan islohotlar zahirida aholining tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishida keng imkoniyatlar yaratildi va bemorlarning Respublika va xorijiy davlatlarga qatnovining kamayishiga erishildi, Respublika markazlarida o'tkaziladigan yuqori texnologiyali amaliyotlar viloyatda tuman markazlarida amalga oshirildi. Biroq tibbiyot tizimiga ajratilayotgan mablag'lar hajmi biroz qisqardi. Masalan, agar 2018-yili sog'liqni saqlash sohasiga 1 trillion 643 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, bu raqam 2022-yilda 1 trillion 246 mlrd. so'mni tashkil etdi[3:18].

Ijtimoiy soha obyektlarida isitish tizimlarini kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini

ta'minlash, ushbu obyektlarga issiqlik energiyasini uzluksiz yetkazib berish, energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda tibbiyot ob'ektlarini moddiy texnik-bazasini mustahkamlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq[4], viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimida 25 ta obyekt nomi va manzilli ro'yxati shakllantirildi. Shundan 5 ta tibbiyot muassasasi ko'mir yoqilg'isida ishlashga o'tkazildi, qolgan 20 ta tibbiyot muassasalarni loyihalashtirish ishlari amalga oshirildi[5].

Qaror asosida viloyatdagi 15 ta tuman (shahar) tibbiyot birlashmalariga 665 million so'm, viloyat davolash profilaktika muassasalariga 310 million so'm jami 975 million so'm mablag' ajratilib quyosh panellari o'rnatildi. 2022-2023 yillarda 169 ta muassasalarga 1885 kVt quvvatli quyosh panellari o'rnatildi. Bunga qo'shimcha ravishda "Tashabbusli byudjet" mablag'lari hisobidan Sherobod tuman tibbiyot muassasasi markaziy shifoxonasi 60 kVt hamda "Navro'z" hududiy bo'limiga 10 kVt quvvatli jami qiymati 802 mln so'mlik quyosh panellari o'rnatildi. Shuningdek, 2022-yilning 2-mavsumi davomida "Tashabbusli byudjet" doirasida 20 ta tibbiyot muassasalarida 14,6 mlrd. so'mlik loyiha g'olib deb topilgan bo'lsa, 2023-yilning 1-mavsumi davomida 24 ta tibbiyot muassasalari uchun 24,8 mlrd. so'mlik loyihalar g'olib deb topildi va barcha mablag'lar moliyalashtirilib ijroga yo'naltirildi[6:9-10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida berilgan topshiriqlari asosida 44 ta oila shifokor punktlari tashkil etilishi belgilandi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun 26 mlrd so'm mablag' yo'naltirildi. Shu bilan birgalikda, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida tashkil etiladigan "Bolalar kardioxirurgiya" bo'limi va "Ona va bola salomatlik markazi" ni jihozlash uchun 30 mlrd so'm, 2021-2024-yillardagi investitsiya dasturi doirasida qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borilgan 12 ta muassasani jihozlash uchun 50

mlrd so'm ajratildi[6:18-19].

2023-2024 yillarning kuz-qish mavsumi uchun ko'mir zaxirasi yaratishda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tizimidagi tibbiyot muassasalariga jami 15407 tonna ko'mir mahsuloti rejalashtirildi. Shundan 8 ta tuman tibbiyot birlashmalariga 11031 tonna ko'mir sotib olindi. 2023-yil 15-iyul holatiga ko'ra, 10304 tonna ko'mir tayyorlanib, rejaga nisbatan 93 foizga bajarildi[6:12].

Tibbiyot tizimini modernizatsiyalash ko'p jihatdan kasalliklar sonining ortishi bilan izohlanadi. O'zbekiston Respublikasida shu jumladan Surxondaryo viloyati aholisi o'rtasida 2018-2023 yillarda yurak qon tomir tizimi kasalliklari 20%ga oshgan, 30-70 yoshdagi aholining 12% da yurak qon tomir tizimi kasalliklari borligi aniqlandi. Vafot etganlarning 59,7% yurak qon tomir tizimi kasalliklariga to'g'ri keladi. 2024-yilda tez yordam xizmatiga 543 425 ta chaqiriq qayd etilgan bo'lib, uning 3629 nafari yurak ishemik kasalliklariga to'g'ri keldi. Shundan 866 nafari statsionarga yotqizildi. Bu esa, kunlik o'rtacha 21 tani tashkil etdi[6:26-27].

Surxondaryo viloyatida tez yordam xizmatini yaxshilash maqsadida 2023-yili 90 ta, 2024-yilda esa 32 ta avtomashina, shuningdek, uzoq tog'li hududlar uchun 5 ta yo'l tanlamas tez yordam avtotransporti keltirildi. Respublika tez yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialining "KOFIH" loyihasi doirasida 24,5 mlrd. so'm hisobiga simulyatsion markaz tashkil etish va jihozlash ishlari amalga oshirildi[7:20].

Surxondaryo viloyatidagi davolash profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida 2024-yil davomida 25 mlrd. so'mdan ortiq mablag' hisobiga yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar keltirildi. Jumladan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialiga "Angiograf", Ftiziatriya va pulmonologiya markaziga "Artroskop", Angor tumaniga "mammograf" apparatlarining keltirilishi aholiga keng imkoniyatlar yaratib berdi[7:37].

Onalik va bolalikni muhofaza qilishni yanada takomillashtirish maqsadida Respublika ona va bola salomatligi markazi Surxondaryo

filiali tashkil etildi. Uni zamonaviy tibbiy apparaturalar bilan jihozlash maqsadida 10 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Aholining Respublika markaziga qatnovini kamaytirish maqsadida viloyatda birinchi marotaba ochiq yurakda jarrohlik amaliyoti yo'lga qo'yildi. Bolalar orasida 900 nafardan ortiq tug'ma yurak nuqsoni mavjud bolalar mavjudligini inobatga olib 2024-yilda viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazida "Bolalar kardioxirurgiya" bo'limi tashkil etildi va uni jihozlash uchun 15 mlrd. so'm mablag' ajratildi. Bundan tashqari, nodavlat tibbiyot muassasalaridan 3 tasining faoliyati kengaytirildi, 11 tasi yangidan tashkil etilib, ularning soni 347 taga yetkazildi[7:36-37].

Surxondaryo viloyatida 2024-yilda oilaviy poliklinika va oilaviy shifokorlik punktlariga 3,1 mlrd so'mlik 117 ta stomatologik apparaturalar va 4 turdagi tibbiy jihozlar keltirildi. Bundan tashqari, 96 ta oilaviy poliklinikalar fizioterapevtik apparaturalar bilan jihozlandi. Viloyatda ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar o'rtasida bachadon bo'yi saratoni kasalliklarini erta bosqichda aniqlash va davolash maqsadida barcha ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar har biri 84,5 mln jami 1 mlrd. 267 mln so'mlik "Kalposkop" apparati bilan ta'minlandi. Natijada qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholining tuman markazlariga qatnovining kamayishiga erishildi[7:40].

Shuningdek, aholi orasida patronaj tizimini yaxshilash, uyda yotib qolgan bemorlar holidan o'z vaqtida xabardor bo'lish hamda patronaj hamshiralarga qulaylik yaratish maqsadida 76 ta, jumladan, Jarqo'rg'on tumaniga 37 ta, Sariosiyoga 12 ta, Sho'rchiga 10 ta, Angorga 7 ta, Uzunga 6 ta, Bandixonga 4 ta "Skuter" mototsikli berildi. Aholiga birlamchi tizimni takomillashtirish, surunkali kasalligi mavjud bemorlarni sog'lomlashtirish, patronaj tizimini yangi bosqichda amalga oshirish borasida "Surxondaryo tajribasi"ni namuna sifatida Angor tumanida amalga oshirilgan ishlarni viloyatning barcha tumanlariga joriy etildi[7:42].

Amalga oshirilgan islohotlar zahirida aholining tibbiy xizmatdan bahramand bo'lishida keng imkoniyatlar yaratildi va

bemorlarning Respublika va xorijiy davlatlarga qatnovining kamayishiga erishildi, Respublika markazlarida o'tkaziladigan yuqori texnologiyali amaliyotlar viloyat hamda tuman markazlarida amalga oshirilmoqda. Sog'liqni saqlash ishlarini yanada yaxshilash maqsadida 2025-yilda 44 ta oilaviy poliklinika va oila shifokorlik punktlar ta'mirlandi, 12 ta tibbiyot muassasalarini tibbiy apparaturalar bilan jihozlash, "Ona va bola salomatlik markazi" hamda "Bolalar kardioxirurgiyasi" bo'limlarini jihozlash uchun moliyalashtirish ishlari yakuniga yetkazildi. Shuningdek, Termiz shahrida "Manguzar" oilaviy poliklinikasi va Denov tumanida "Hazarbog" oilaviy poliklinikasi tashkil etildi[8:6-7].

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, Surxondaryo viloyati aholisiga 34 ta tibbiyot muassasasi statsionar, 192 ta birlamchi tibbiy sanitariya xizmatini ko'rsatishsa, 15 ta tez yordam stansiyalar va ularning 136 ta tez yordam shoxobchalari shoshilinch yordam ko'rsatadi[8:25]. Bundan tashqari, Sanitariya-epiemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qo'mitasining Surxondaryo viloyati boshqarmasi va uning 15 ta hududiy bo'limlari tomonidan aholi o'rtasida mavjud kasalliklarning oldini olish, aniqlanganda zudlik bilan bartaraf etish, infeksiyalarning oldini olib borishda emlash ishlarini tashkil etish kabi tadbirlar amalga oshirildi.

2025-yilda Surxondaryo viloyatida o'tkir koronar sindrom (O'KS) bilan jami 247 kishi kasallandi. Ulardan 178 tasi shoshilinch kasalxonaga yotqizildi[8:46], bu esa kasallikning yuqori klinik og'irligidan dalolat beradi. Ushbu holat jamoat salomatligiga jiddiy tahdid soladi va uning rivojlanishiga olib keluvchi omillarni bartaraf qilishni talab qiladi. Ushbu viloyatda O'KS bilan kasallanishning ko'payishining asosiy sabablari quyidagilardir:

- Aholi tomonidan sog'lom turmush tarzi tamoyillariga rioya qilinmasligi;

- Yuqori kaloriyalı, ozuqaviy moddalarga boy oziq-ovqatlarni haddan tashqari iste'mol qilish.

Bundan tashqari, mintaqada muhim

ijtimoiy ahamiyatga ega qo‘shimcha muammolar aniqlandi. Ular quyidagilardir:

- Qarindoshlar va turmush o‘rtoqlar tomonidan zo‘ravonlik tufayli onalar va go‘daklar o‘limi holatlarining borligi;

- Qarindoshlik nikohlari bilan bog‘liq tug‘ma nuqsonli bolalarning tug‘ilish darajasining yuqori ekanligi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlarining tubdan modernizatsiya qilinishiga xizmat qilmoqda. Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda aholining ijtimoiy

himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, shuningdek, sog‘liqni saqlash infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha sezilarli amaliy natijalarga erishilgan.

Viloyatda amalga oshirilgan dasturlar doirasida birlamchi tibbiy xizmatlar kengaytirildi, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi hamda zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta‘minlash darajasi oshirildi. Shuningdek, energiya ta‘minoti, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va shoshilinch tibbiy yordam tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar tibbiy xizmatlar uzluksizligini ta‘minlashga xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2018-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 13-varaq.
2. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2021-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 34-varaq.
3. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2022-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 18-varaq.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-57-son Qarori // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 17.02.2023-y., 07/23/57/0093-son // <https://lex.uz/docs/-6385716>
5. Surxondaryo viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi joriy arxivi. 2020 yilgi ma‘lumotlar papkasi, 25-varaq.
6. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2023-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 9-10, 12, 18-19, 26-27-varaqlar.
7. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2024-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 20, 36-37, 40, 42-varaqlar.
8. Surxondaryo viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi, 2025-yilgi ma‘lumotlar papkasi, 6-7, 25, 46-varaqlar.